

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING  
QARORI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI FAOLIYATINI YANADA  
TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 3-avgustdag'i PQ-4796-son **qarori** ijrosini ta'minlash, shuningdek, milliy statistika tizimi faoliyati samaradorligini yanada oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Rasmiy statistikani ishlab chiquvchilarining statistika metodologiyalarini auditdan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizom **1-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

2. O'zbekiston Respublikasi Hukumatining **2-ilovaga** muvofiq ayrim qarorlariga o'zgartirishlar kiritilsin.

3. O'zbekiston Respublikasi Hukumatining **3-ilovaga** muvofiq ayrim qarorlari o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

4. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda o'zlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni bir oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazarat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha o'rinnbosari — O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vaziri J.A. Qo'chqorov va O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi raisi B.A. Begalov zimmasiga yuklansin.

**O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV**

Toshkent sh.,  
2020-yil 6-noyabr,  
690-son

Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-noyabrdagi 690-son **qaroriga**  
1-ILOVA

**Rasmiy statistikani ishlab chiquvchilarining statistika metodologiyalarini auditdan o'tkazish tartibi to'g'risida**

NIZOM

**1-bob. Umumiyl qoidalar**

1. Ushbu Nizom rasmiy statistikani ishlab chiquvchilarining statistika metodologiyalarini auditdan o'tkazish tartibini belgilaydi.

2. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalilanildi:

milliy statistika tizimi — O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi (keyingi o'rinnarda — Davlat statistika qo'mitasi) hamda rasmiy statistikani ishlab chiquvchi, tarqatuvchi va muvofiqlashtiruvchi boshqa davlat organlari;

rasmiy statistikani ishlab chiquvchi — milliy statistika tizimining bir qismi bo'lgan, statistik ma'lumotlarni ishlab chiquvchi, tarqatuvchi va muvofiqlashtiruvchi ma'muriy organ yoki uning bo'linmasi;

statistik ma'lumotlar — statistik kuzatuvlar natijasida va/yoki ma'muriy ma'lumotlar asosida olingan iqtisodiy, demografik, ijtimoiy, moliyaviy va ekologik xususiyatga ega bo'lgan ma'lumotlar;

statistika metodologiyasi — statistika faoliyatini tashkil etishning umum e'tirof etilgan usullari, qoidalari va prinsiplari;

statistika metodologiyalarini auditdan o'tkazish — rasmiy statistikani ishlab chiquvchilarining statistik ma'lumotlarni ishlab chiqish bilan bog'liq faoliyatida qo'llaydigan metodologik hujjatlarining umum e'tirof etilgan xalqaro standartlarga muvofiqligini baholash.

3. Audit Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan ko'p yillik va yillik statistika dasturlariga kiritilgan rasmiy statistikani ishlab chiquvchilarda (keyingi o'rnlarda — ishlab chiquvchi) o'tkaziladi.
4. Statistika metodologiyalari Davlat statistika qo'mitasi tomonidan auditdan o'tkaziladi.
5. Ishlab chiquvchining statistika metodologiyalarini auditdan o'tkazish Davlat statistika qo'mitasi tomonidan statistikani ishlab chiquvchilar bilan kelishgan holda har yili tasdiqlanadigan reja-jadvalga asosan tashkil etiladi.
6. Audit o'tkazish, uning natijalarini ko'rib chiqish hamda tegishli chora-tadbirlar ushbu Nizomga **ilova** qilingan sxemaga muvofiq amalga oshiriladi.

7. Ishlab chiquvchida statistika metodologiyalarini auditdan o'tkazish har besh yilda kamida bir marta o'tkaziladi.

8. Auditni o'tkazish qonuniylik, mustaqillik, xolislik va maxfiylik prinsiplari asosida amalga oshiriladi.

## **2-bob. Auditning maqsadi va asosiy vazifalari**

9. Auditning maqsadi Davlat statistika qo'mitasidan tashqari boshqa ishlab chiquvchi tomonidan foydalanilayotgan statistika metodologiyalarini xalqaro standartlarga muvofiqlik yuzasidan baholash hamda ularni yanada takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Audit boshqa ishlab chiquvchining rasmiy statistika sohasida o'zları yoki yuqori organlar tomonidan qabul qilingan metodologik hujjatlarni baholashni nazarda tutadi hamda Davlat statistika qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan, tasdiqlangan va joriy etilgan statistika metodologiyalariga nisbatan tatbiq etilmaydi.

10. Quyidagilar auditning asosiy vazifalari hisoblanadi:

foydalanilayotgan statistika metodologiyalarini xalqaro standartlarga muvofiqlik yuzasidan baholash;

ishlab chiqilayotgan va e'lon qilinayotgan statistik ma'lumotlarning foydalanilayotgan statistika metodologiyalariga mosligini aniqlash;

aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etishga, statistika metodologiyalarini va statistik ma'lumotlarni ishlab chiqish faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan takliflar hamda tavsiyalar ishlab chiqish.

## **3-bob. Audit o'tkazishni tayinlash**

11. Davlat statistika qo'mitasi har yili 1-dekabrga qadar ishlab chiquvchining statistika metodologiyalarini auditdan o'tkazish bo'yicha kelgusi yil uchun audit o'tkazish reja-jadvalini (keyingi o'rnlarda — reja-jadvali) tasdiqlaydi.

12. Reja-jadvaliga kiritilgan ishlab chiquvchi o'tkaziladigan audit to'g'risida Davlat statistika qo'mitasi tomonidan audit boshlanishidan kamida o'ttiz kalendar kun oldin xabardor qilinadi.

Xabarnomada auditning boshlanish sanasi, baholanadigan yo'naliishlar va hujjatlarning dastlabki ro'yxati, shuningdek, auditni o'tkazish uchun zarur bo'lgan boshqa ma'lumotlar ko'rsatiladi.

Audit o'tkaziladigan ishlab chiquvchi audit boshlangunga qadar xabarnomada ko'rsatilgan hujjatlar va ma'lumotlarni tayyorlab qo'yishi lozim.

13. Ishlab chiquvchida audit o'tkazish yuzasidan Davlat statistika qo'mitasining buyrug'i chiqariladi. Buyruq bilan audit o'tkazish dasturi va audit guruhi tarkibi tasdiqlanadi.

14. Audit o'tkazish dasturi quyidagilarni nazarda tutadi:

audit o'tkazish maqsadlari;

audit o'tkazish sohasi (o'rganiladigan faoliyat turlari ro'yxati);

audit o'tkazish sanasi;

audit grafigi;

audit o'tkazuvchi mas'ul xodim yoki audit guruhining (agar audit o'tkazish bo'yicha guruh tashkil etilsa) majburiyatlari.

Audit o'tkazish dasturi o'z ichiga ishlab chiquvchida audit o'tkazish jarayoniga oid boshqa ma'lumotlarni ham qamrab olishi mumkin.

15. Audit o'tkazish to'g'risidagi buyruq hamda audit o'tkazish dasturi ishlab chiquvchining rahbariga audit boshlanishidan o'n kun oldin taqdim etiladi.

Audit o'tkazish dasturiga tomonlarning kelishuviga muvofiq audit boshlanishidan oldin va zarur hollarda audit davomida o'zgartirishlar kiritilishi mumkin.

16. Davlat statistika qo'mitasi tomonidan auditda ishtirok etish uchun xalqaro ekspertlar, ilmiy jamoatchilik vakillari va boshqa rasmiy statistikani ishlab chiquvchining malakali mutaxassislari ixtiyorilik yoki shartnoma asosida jalg etilishi mumkin.

17. Audit o'tkazilayotgan davrda amalda foydalanilayotgan metodologik hujjatlarga audit o'tkazilayotgan ishlab chiqaruvchi tomonidan o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritilishiga yo'l qo'yilmaydi.

18. Audit o'tkazishning umumiyy muddati uch oydan oshishi mumkin emas. Auditni o'tkazish muddati:

foydalanilayotgan metodologiyalarga taalluqli hujjatlarni xalqaro tashkilotlardan olishga va hujjatlarni tarjima qilishga qo'shimcha vaqt zarur bo'lganda;

o'rganilishi lozim bo'lgan hujjatlar hajmining ko'pligi sababli auditni o'tkazish uchun buyruqda ko'rsatilgan muddatga qo'shimcha vaqt talab qilinganda;

audit o'tkazish jarayonida o'rganilishi talab qilingan qo'shimcha hujjatlar (axborotlar) to'liq taqdim qilinmaganda;

xalqaro va milliy ekpertlar xulosalarini olish zarurati yuzaga kelgan holatlarda uzaytirilishi mumkin.

19. Audit muddati auditni o'tkazuvchi guruh rahbarining asoslangan bildirishnomasiga asosan Davlat statistika qo'mitasi raisining ruxsati bilan uzaytiriladi. Bunda tegishli bildirishnomada auditning muddati tugashidan kamida besh ish kunidan oldin berilishi zarur.

Audit muddati uzaytirilganda Davlat statistika qo'mitasi raisining bu haqida qo'shimcha buyrug'i chiqariladi va audit o'tkazilayotgan ishlab chiquvchi xabardor qilinadi.

#### **4-bob. Auditni tashkil etish**

20. Statistika metodologiyalarini auditdan o'tkazish bevosita ishlab chiquvchining binosida, karantinga oid choralar amal qilishi davrida shaxslarning binolarga kirishi cheklangan hollarda yoki ish beruvchining asosiy ish faoliyatiga ta'sir ko'rsatmaslik maqsadida — masofaviy shaklda Davlat statistika qo'mitasiga binosida tashkil etiladi.

Audit masofaviy shaklda o'tkazilgan hollarda barcha zarur hujjatlar ishlab chiquvchi tomonidan Davlat statistika qo'mitasiga ro'yxat asosida taqdim etiladi.

Tomonlarning kelishuviga asosan o'rganiladigan hujjatlarning nusxalari, shu jumladan, elektron shaklda taqdim etilishi mumkin.

21. Audit o'tkaziladigan ishlab chiquvchi auditni o'tkazish uchun mas'ul bo'lgan o'z vakilini tayinlaydi hamda zarur hujjatlarning audit guruhiga o'z vaqtida va to'liq taqdim etilishini ta'minlaydi.

22. Auditni o'tkazish quyidagi hujjatlar va axborotlarni o'rganishni nazarda tutadi:

ishlab chiquvchining statistik ma'lumotlarni ishlab chiqish sohasida foydalanilayotgan statistika metodologiyalari hamda ularni asoslovchi normativ-huquqiy hujjatlar (buyruqlar, qarorlar, qo'shma qarorlar);

statistika metodologiyalarini ishlab chiqishda foydalanilgan xalqaro tashkilotlarning metodologik hujjatlari va tavsiyalari;

statistika metodologiyalarida qo'llanilayotgan xorijiy davlatlarning tajribasini asoslovchi hujjatlar;

statistik ma'lumotlarni ishlab chiqishda foydalaniladigan birlamchi manbalar (idoraviy hisobot shakllari, so'rovnomalari, blankalar, kartochkalar, namunaviy jadvallar va boshqalar) hujjatlari;

ishlab chiqilgan va tarqatilgan statistik ma'lumotlar (to'plam, byulleten, broshyura, press-reliz, jadvallar, metama'lumotlar va boshqalar);

zarur hollarda, statistika metodologiyalarini yanada takomillashtirish yuzasidan amalga oshirilayotgan tadbirlarni asoslovchi hujjatlari (konsepsiya, strategiya, chora-tadbirlar, "yo'l xaritalari" va boshqalar).

Audit maqsadidan kelib chiqqan holda zarurat tug'ilganda qo'shimcha hujjatlari va axborotlar o'r ganilishi mumkin. Ishlab chiquvchining rahbari ularni audit guruhi so'roviga asosan taqdim etish choralarini ko'rishi lozim.

23. Audit olingan hujjatlari hamda axborotlarning xalqaro va milliy standartlarga muvofiq kelishi yoki kelmasligini aniqlash uchun ularni xalqaro tashkilotlar tomonidan qabul qilingan metodologik hujjatlari va tavsiyalar bilan solishtirish yo'li bilan tashkil etiladi.

O'rganish zarurati tug'ilgan va xalqaro tashkilotlar tomonidan qabul qilingan metodologik hujjatlari va tavsiyalar audit o'tkazuvchilar tomonidan mustaqil ravishda xalqaro tashkilotlardan so'rov orqali olinishi yoki jahon internet axborot tarmog'idagi rasmiy manbalardan foydalanilishi mumkin.

24. Audit uni o'tkazuvchilar tomonidan mustaqil ravishda, ishlab chiqaruvchi vakillarining ishtirokisiz, olingan hujjatlari va ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlagan holda tashkil etiladi.

Audit o'tkazish uchun taqdim etilgan barcha ochiq hujjatlari va ma'lumotlar auditda ishtirok etish uchun jalg etilgan milliy va xorijiy ekspertlardan tashqari uchinchi tomonga oshkor etilmasligi shart.

Oshkor etilishi qonun hujjatlari bilan taqiqlangan yoki cheklangan hujjatlari va ma'lumotlar auditdan faqat Davlat statistika qo'mitasining ushbu hujjatlardan foydalanishga tegishli ruxsati bo'lgan mas'ul xodimlari tomonidan o'tkaziladi.

Audit o'tkazilayotgan hujjatlarga aniqlik kiritish va tushuntirish olish maqsadida audit o'tkazilayotgan ishlab chiquvchining mas'ul xodimlari Davlat statistika qo'mitasiga taklif etilishi mumkin.

25. Audit o'tkazish jarayoniga xorijiy ekspertlar masofaviy tarzda jalg etilgan hollarda oshkor etilishi qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan hujjatlari va ma'lumotlar nusxalarining ularga elektron shaklda yuborilishiga yo'l qo'yiladi.

26. Auditni o'tkazish muddati audit natijalari to'g'risida dalolatnomasi tuzilgan (imzolangan) kunda tugaydi.

## **5-bob. Audit natijalarini rasmiylashtirish**

27. Audit natijasiga ko'ra ikki nusxada audit dalolatnomasi tuziladi.

Audit dalolatnomasida quyidagilar aks ettirilishi kerak:

ishlab chiquvchining statistik ma'lumotlarni ishlab chiqish bo'yicha faoliyati tahlili;

audit davomida qo'llanilayotgan metodologiyalarning xalqaro standartlarga muvofiqligi yuzasidan aniqlangan kamchiliklar, ularning paydo bo'lishi sabablari va sharoitlari;

aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etishga, metodologik asoslar va statistik ma'lumotlarni ishlab chiqish faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan takliflar hamda tavsiyalar.

28. Audit dalolatnomasiga audit davomida aniqlangan kamchiliklarni tasdiqlovchi hujjatlari ilova qilinadi. Agar audit natijasida kamchiliklar aniqlanmagan bo'lsa, bu haqida audit dalolatnomasida qayd etiladi hamda taqdimnomasi rasmiylashtirilmaydi.

29. Audit dalolatnomasining barcha nusxalari auditni o'tkazuvchi shaxs (shaxslar) va ishlab chiquvchining birinchi rahbari yoki uning o'rinosari tomonidan imzolanadi.

Ishlab chiquvchining birinchi rahbari yoki uning o'rinosari audit dalolatnomasini imzolashdan bosh tortgan taqdirda, auditni o'tkazuvchi bu haqida audit dalolatnomasiga tegishli yozuvni kiritadi.

30. Audit dalolatnomasining bir nusxasi auditdan o'tkazilgan ishlab chiqaruvchiga tekshiruv tugaganidan keyin uch kun ichida topshiriladi.

Auditdan o'tkazilgan ishlab chiqaruvchi audit dalolatnomasida bayon etilgan faktlarga va (yoki) audit guruhining xulosalari hamda takliflariga rozi bo'limgan taqdirda, audit dalolatnomasini olgan kundan e'tiboran o'n kun ichida Davlat statistika qo'mitasiga mazkur dalolatnoma bo'yicha umuman yoki uning ayrim holatlari yuzasidan yozma e'tirozlarini taqdim etishga haqli.

Auditdan o'tkazilgan ishlab chiqaruvchi o'z e'tirozlarining asoslanganligini tasdiqlovchi hujjatlarni (ularning tasdiqlangan ko'chirma nusxalarini) yozma e'tirozlarga ilova qilishga yoki kelishilgan muddatda Davlat statistika qo'mitasiga topshirishga haqli.

## **6-bob. Audit natijalariga ko'ra aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etuvchi harakatlarni amalga oshirish**

31. Audit natijalariga ko'ra statistika metodologiyalarida xalqaro standartlarga muvofiqlik yuzasidan kamchiliklar aniqlangan hollarda Davlat statistika qo'mitasi tomonidan ishlab chiqaruvchiga ushbu kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan bajarilishi majburiy bo'lgan taqdimnomalar kiritiladi.

Taqdimnomalar ishlab chiqaruvchiga audit tugaganidan keyin o'n kun ichida topshiriladi.

Taqdimnomada audit davomida aniqlangan kamchiliklar, ularning paydo bo'lishiga sabab bo'lgan shart-sharoitlar, kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar ko'riliishi yuzasidan qarorlar va ularni bajarish muddatlari aks ettiriladi.

Aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha amalga oshirilishi lozim bo'lgan tadbirlar ko'lamidan kelib chiqqan holda ishlab chiqaruvchiga ularni bartaraf etish uchun 12 oygacha muddat belgilanishi mumkin.

Ayrim hollarda ishlab chiqaruvchining asoslangan taklifiga ko'ra aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha taqdimnomada belgilangan muddat Davlat statistika qo'mitasi tomonidan uzaytirilishi mumkin.

32. Auditdan o'tkazilgan ishlab chiqaruvchi taqdimnomada ko'rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan taqdimnomalar kiritilgan sanadan bir oydan ko'p bo'limgan muddatda chora-tadbirlar rejasi yoki "Yo'l xaritasi"ni ishlab chiqishi va ma'lumot uchun Davlat statistika qo'mitasiga taqdim etishi shart.

Ishlab chiqaruvchi chora-tadbirlar rejasi ("Yo'l xaritasi") ijrosi yuzasidan har chorak yakuni bo'yicha keyingi oyning 10-kunigacha Davlat statistika qo'mitasiga ma'lumot berib boradi.

33. Davlat statistika qo'mitasi audit natijalari bo'yicha ishlab chiqaruvchiga kiritilgan taqdimnomalar hamda ular bo'yicha ishlab chiqilgan chora-tadbirlar rejalarini ("Yo'l xaritalari") ijrosi yuzasidan doimiy monitoring olib boradi.

34. Ishlab chiqaruvchi taqdimnomada keltirilgan muddatlarda audit davomida aniqlangan kamchiliklarni to'liq bartaraf etish choralarini ko'radi hamda amalga oshirilgan ishlar to'g'risida Davlat statistika qo'mitasiga yakuniy ma'lumotlarni taqdim etadi.

35. Davlat statistika qo'mitasi yakuniy ma'lumotlarni o'rganadi va o'rganish yakunlari yuzasidan kamchiliklarni bartaraf etish natijalari bo'yicha xulosa tuzadi.

## **7-bob. Yakunlovchi qoidalar**

36. Statistika metodologiyalarini auditdan o'tkazish natijalari va aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan ko'rigan choralar to'g'risidagi ma'lumotlar Davlat statistika qo'mitasi huzuridagi Statistika kengashi yig'ilishi muhokamasiga kiritiladi.

37. Ishlab chiqaruvchining rahbari auditni o'tkazish uchun kerakli sharoitlarning yaratib berilishi, mas'ul vakillarning biriktirilishi, zarur hujjatlar audit guruhiga o'z vaqtida va to'liq taqdim etilishi, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish uchun zarur choralar ko'riliishi hamda amalga oshirilgan chora-tadbirlar to'g'risida choraklik va yakuniy ma'lumotlar o'z vaqtida taqdim etilishi uchun javobgardir.

38. Auditni o'tkazish davomida yuzaga keladigan nizolar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

Rasmiy statistikani ishlab  
chiquvchilarning statistika  
metodologiyalarini auditdan  
o'tkazish to'g'risidagi **nizomga**  
**ILOVA**

## **Statistika metodologiyalarini auditdan o'tkazish, uning natijalarini ko'rib chiqish hamda tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish**

### SXEMASI

Bosqichlar	Subyektlar	Tadbirlar	Bajarish muddatlari
1-bosqich	Davlat statistika qo'mitasi	<ul style="list-style-type: none"> <li>1. Rasmiy statistikani ishlab chiquvchilarda statistika metodologiyalarini auditdan o'tkazish reja-jadvalini tasdiqlash.</li> <li>2. Auditni Nizomda belgilangan talablar asosida o'tkazish.</li> <li>3. O'tkazilgan audit natijalariga ko'ra dalolatnoma, zarur hollarda taqdimnomma tuzish va ishlab chiquvchiga taqdim etish.</li> </ul>	Haryili 1-dekabrga qadar  Belgilangan muddatlarda  Audit yakunlangandan so'ng 10 kun muddatda
2-bosqich	Ishlab chiquvchi	<ul style="list-style-type: none"> <li>1. Taqdimnomada ko'rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish.</li> <li>2. Aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha ko'rilgan choralar to'g'risida choraklik va yakuniy ma'lumotni Davlat statistika qo'mitasiga taqdim etish.</li> </ul>	Taqdimnomada belgilangan muddatlarda  Har chorak yakuni bo'yicha keyingi oyning 10-kunigacha
3-bosqich	Davlat statistika qo'mitasi	<ul style="list-style-type: none"> <li>1. Audit natijalari bo'yicha kiritilgan taqdimnomalar ijrosi yuzasidan monitoring olib borish.</li> <li>2. Ishlab chiquvchi tomonidan taqdim etilgan yakuniy ma'lumotlarni o'rganish va o'rganish yakunlari yuzasidan kamchiliklarni bartaraf etish natijalari bo'yicha xulosa tuzish.</li> <li>3. Audit natijalari va ko'rilgan choralar to'g'risidagi ma'lumotlarni Davlat statistika qo'mitasi huzuridagi Statistika kengashi yig'ilishi muhokamasiga kiritish.</li> </ul>	Doimiy ravishda  Ma'lumot olingandan so'ng 10 kun muddatda Yil yakuni bo'yicha

Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-noyabrdagi 690-son qaroriga  
2-ILOVA

### **O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga kiritilayotgan o'zgartirishlar**

1. Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" 2003-yil 8-yanvardagi 8-slon **qarorida** (O'zbekiston Respublikasi QT, 2003-y., 1-slon, 3-modda):

a) 4-bandning **birinchi xatboshisidagi** "davlat statistikasini" so'zlari "rasmiy statistikani" so'zlari bilan almashtirilsin;

b) 5-bandning **ikkinci xatboshisi** quyidagi tahrirda bayon qilinsin:

"Statistika kengashining tarkibi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi".

2. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 2-sentabrdagi 690-son qaroriga (O'zbekiston Respublikasi QHT, 2017-y., 36-slon, 955-modda) 1-ilovaning **matni** quyidagi tahrirda bayon qilinsin:

### **"O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi to'g'risida NIZOM**

#### **1-bob. Umumiyl qoidalar**

1. Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining (keyingi o'rinnlarda — Davlat statistika qo'mitasi) maqomi, asosiy vazifalari va funksiyalari, huquq va majburiyatları,

shuningdek, uning faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Davlat statistika qo'mitasi, rasmiy statistika sohasida rivojlanishning milliy va mintaqaviy xususiyatlarini hisobga olgan holda ilmiy metodologiyaga, xalqaro standartlar va qoidalarga asoslangan yaxlit milliy statistika tizimini yaratishga va uning faoliyat ko'rsatishiga yo'naltirilgan yagona davlat siyosatini amalga oshiruvchi, rasmiy statistikadan foydalanuvchilar, shu jumladan, xorijiy foydalanuvchilarni ishonchli va rasmiy statistika ma'lumotlari bilan ta'minlovchi vakolatli davlat boshqaruvi organi hisoblanadi.

3. Davlat statistika qo'mitasi rasmiy statistikani shakllantirish bilan bog'liq o'z vakolatlarini barcha davlat organlari va tashkilotlaridan mustaqil ravishda amalga oshiradi va o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga bo'ysunadi.

4. Davlat statistika qo'mitasi tizimiga quyidagilar kiradi:

Davlat statistika qo'mitasining markaziy apparati;

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar statistika boshqarmalari;

tumanlar (shaharlar) statistika bo'limlari;

Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti (keyingi o'rinnarda — Institut).

5. Davlat statistika qo'mitasi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, ushbu Nizomga, shuningdek, boshqa qonun hujjatlariga amal qiladi.

6. Davlat statistika qo'mitasi o'z faoliyatini boshqa davlat organlari va yuridik shaxslar bilan o'zaro hamkorlikda, shu jumladan, idoralararo elektron hamkorlik qilishdan foydalangan holda amalga oshiradi.

7. Davlat statistika qo'mitasi o'z faoliyatini har yili O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan Davlat statistika ishlari dasturiga muvofiq tashkil qiladi.

8. Davlat statistika organlarining qonuniy faoliyatiga, shu jumladan, rasmiy statistika hisobotlari va kuzatuvlarini o'tkazish hamda ularni nashr qilish va e'lon qilish jarayonlariga har qanday aralashishiga yo'l qo'yilmaydi.

9. Davlat statistika qo'mitasining o'z vakolatlari doirasida qabul qilingan qarorlari davlat boshqaruvi organlari, xo'jalik birlashmalari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, xo'jalik yurituvchi subyektlar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy hisoblanadi.

10. Davlat statistika qo'mitasining rasmiy nomi:

a) davlat tilida:

to'liq nomi — O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, qisqartirilgan nomi — Davlat statistika qo'mitasi;

b) ingliz tilida:

to'liq nomi — The State Committee of the Republic of Uzbekistan on Statistics, qisqartirilgan nomi — The State Committee on Statistics;

v) rus tilida:

to'liq nomi — Gosudarstvenny komitet Respublikni Uzbekistan po statistike, qisqartirilgan nomi — Goskomstat.

11. Davlat statistika qo'mitasi yuridik shaxs hisoblanadi, O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan va o'z nomi davlat tilida yozilgan muhr va blankalarga, mustaqil balansga, bank hisob raqamlariga, shu jumladan, xorijiy valyutadagi hisob raqamlariga va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G'aznachiligidagi shaxsiy g'aznachilik hisobvaraqlariga ega bo'ladi.

12. Davlat statistika qo'mitasining joylashgan joyi (pochta manzili): 100170, Toshkent shahri, Mustaqillik shoh ko'chasi, 63-uy.

## **2-bob. Davlat statistika qo'mitasining asosiy vazifalari va funksiyalari**

13. Quyidagilar Davlat statistika qo'mitasining asosiy vazifalari hisoblanadi:

rasmiy statistika sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish, rasmiy statistikani tashkil etishning samarali tizimini ta'minlash;

rasmiy statistika sohasini muvofiqlashtirish va funksional tartibga solish;

xalqaro standartlarga muvofiq bo'lgan yagona statistika metodologiyasini hamda davlat statistika kuzatuvlari shakllarini ishlab chiqish, tasdiqlash va joriy etish;

ijtimoiy-iqtisodiy va demografik hodisalar, jarayonlar va ularning natijalari to'g'risidagi statistika axborotlarini yig'ish, qayta ishlash, to'plash, saqlash, umumlashtirish, tahlil qilish va e'lon qilish;

davlat organlari, yuridik shaxslar, xalqaro tashkilotlar va aholini belgilangan tartibda statistika axboroti bilan ta'minlash;

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini yuritish, statistika ishlarini tashkil etish uchun zarur bo'lgan iqtisodiy-statistik klassifikatsiyalar tizimini ishlab chiqish, joriy etish va yuritish;

davlat statistikasi tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish, foydalanuvchilarning respublikaning rivojlanishini to'liq tavsiflovchi va iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarining rivojlanishidagi, shuningdek, aholi turmush darajasidagi sifat o'zgarishlarini yanada to'liq ochib beruvchi ko'rsatkichlarning keng ro'yxatidan erkin foydalanishlarini ta'minlash;

Davlat statistika qo'mitasi markaziy apparati va uning tarkibiy bo'linmalarining ish usullari va shakllarini yanada takomillashtirish, fuqarolarning murojaatlariga o'z vaqtida munosabat bildirish, yuklangan vazifalar o'z vaqtida va sifatli bajarilishi uchun xodimlarning mas'uliyatini oshirish;

ro'yxatga olish jarayonlarini tashkil etish va amalga oshirish.

14. Davlat statistika qo'mitasi o'z zimmasiga yuklangan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

a) rasmiy statistikasi sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va bajarish, statistikani tashkil qilishning samarali tizimini ta'minlash va rasmiy statistika sohasini muvofiqlashtirish va funksional tartibga solish sohasida:

statistik ma'lumotlardan foydalanuvchilarning talablarini o'rganishni hisobga olgan holda istiqbolli maqsadlar va yo'nalishlarni, rasmiy statistikani rivojlantirish uchun kadrlar bilan va moliyaviy ta'minlashni belgilaydi;

Davlat statistika ishlari dasturini ishlab chiqadi, Davlat statistika qo'mitasi huzuridagi Statistika kengashi va Jamoatchilik kengashi bilan kelishilishini ta'minlaydi hamda belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga tasdiqlash uchun kiritadi;

tahliliy salohiyatni mustahkamlash, Davlat statistika ishlari dasturining mazmunini doimiy ravishda takomillashtirish, uning mamlakat va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, tarkibiy va bozor islohotlari, iqtisodiyot tarmoqlari va sektorlarida islohotlarning borishini tavsiflovchi tegishli maqsadli ko'rsatkichlar bilan o'zaro bog'liqligini oshirish bo'yicha zarur choralarni ko'radi;

rasmiy statistika tamoyillariga rioya etilishini va xalqaro standartlarga muvofiq bo'lgan statistik metodologiyaning yagonaligini ta'minlaydi;

rasmiy statistikani tashkil etish sohasidagi qonun hujjatlarini yanada takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqishda ishtirok etadi, rasmiy statistika faoliyati masalalari bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar loyihamalarini belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga va tegishli organlarga kiritadi;

xalqaro statistika tashkilotlari va xorijiy mamlakatlarning statistika organlari bilan hamkorlik qilish to'g'risida belgilangan tartibda bitimlar tuzadi;

davlat organlari va tashkilotlarining ochiq ma'lumotlar to'plamlari ro'yxatini shakllantirish, yuritish va yangilash hamda tegishli axborotlar O'zbekiston Respublikasining Ochiq ma'lumotlar portalida o'z vaqtida aks ettirilishi bo'yicha faoliyatini muvofiqlashtiradi;

b) xalqaro standartlarga muvofiq bo'lgan yagona statistika metodologiyasini hamda davlat statistika kuzatuvlari shakllarini ishlab chiqish, tasdiqlash va joriy etish sohasida:

makroiqtisodiy, tarmoq va hududiy darajalarda o'rganilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning qamrovini kengaytirishga qaratilgan statistik ma'lumotlarni yig'ish va qayta

ishlashning zamonaviy metodologiyasi va metodikalarini keng joriy etish yo'li bilan statistik kuzatuvlar tizimini qabul qilingan xalqaro amaliyotga yanada moslashtirishni amalga oshiradi;

davlat statistika kuzatuvlari shakllarini ishlab chiqadi, tasdiqlaydi va joriy etadi, statistika kuzatuvlarini o'tkazish usullarini belgilaydi;

rasmiy statistika sohasida normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqadi va belgilangan tartibda qabul qiladi;

davlat boshqaruvi organlari va xo'jalik birlashmalari tomonidan o'z vakolatlari doirasida amalga oshiriladigan davlat va idoraviy statistika kuzatuvlari tizimini maqbullashtirish yo'li bilan xolisona, sifatli va talab yuqori bo'lgan hisobot ma'lumotlari tayyorlanishini, tanlanma statistika kuzatuvlari sonini va natijalarining ishonchliligi bosqichma-bosqich oshirilishini muvofiqlashtiradi, idoraviy statistika kuzatuvlari shakllarini kelishadi;

statistika sohasida tadqiqot ishlarini, shu jumladan, xalqaro tashkilotlar tomonidan mamlakatlar reyting baholarini tuzish uchun foydalaniladigan axborot manbalarini o'rganishni tashkil etadi va amalga oshiradi, ular asosida shakllantiriladigan va tarqatiladigan statistik ko'rsatkichlar tarkibini yaxshilash chora-tadbirlarini ishlab chiqadi;

jamiyat ehtiyojlariga muvofiq rasmiy statistika sohasidagi ilg'or xorijiy tajribani o'rganadi, umumlashtiradi va tarqatadi, xalqaro tavsiyalar asosida ko'rsatkichlarni hisoblash metodikalarini doimiy ravishda takomillashtiradi;

v) ijtimoiy-iqtisodiy va demografik hodisalar, jarayonlar va ularning natijalari to'g'risidagi statistik axborotlarni yig'ish, qayta ishlash, to'plash, saqlash, umumlashtirish, tahlil qilish va e'lon qilish sohasida:

Davlat statistika ishlari dasturining bajarilishini ta'minlaydi;

mamlakatni, uning mintaqalarini, iqtisodiyot tarmoqlari va sektorlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish davlat dasturlarining bajarilishi yuzasidan davlat statistika kuzatuvlarini tashkil etadi va amalga oshiradi;

davlat statistika hisobotlarini elektron shaklda, zarur hollarda qog'ozda yig'ishni, uy xo'jaliklarini statistik kuzatishni, ro'yxatdan o'tkazishlarni, bir martalik hisobga olishlarni, so'rovlarni va boshqa kuzatuvlarni tashkil etadi va ta'minlaydi;

makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning statistik hisob-kitoblarini amalga oshiradi hamda mamlakatdagi eng muhim iqtisodiy va ijtimoiy hodisalar va jarayonlarning dastlabki statistik tahlilini olib boradi;

statistika, hisobot ko'rsatkichlarining va o'tkazilgan tanlanma kuzatuvlar natijalarining tezkorligi, ishonchliligi va xolisligini, statistik axborotlarning qulayligi, ochiq-oydinligi va oshkorligini kengaytirish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilishini ta'minlaydi;

statistika ishlari tashkil etishning statistik axborotlarini yig'ish, qayta ishlash va umumlashtirish tartibiga davlat organlari hamda mahalliy davlat hokimiyati organlarining har qanday aralashuvini istisno qiladigan tizimni yaratish chora-tadbirlarini ko'radi;

xo'jalik yurituvchi subyektlarga elektron hujjat shaklidagi davlat statistika kuzatuvlari shakllarini tuzish va taqdim etish uchun maxsus dasturiy ta'minotdan bepul foydalanish imkonini beradi;

xo'jalik yurituvchi subyektlarga ishonchli davlat statistika hisobotlarini taqdim etishda har tomonlama ko'maklashadi, statistik ma'lumotlarni taqdim etish sohasida huquqiy madaniyatni oshirish va huquqbarzarliklarning oldini olishning ta'sirchan mexanizmlarini ishlab chiqadi, statistik nazoratni amalga oshirishning zamonaviy usullarini joriy etadi;

axborot-statistik ma'lumotlar bazasini, statistik registrlarni, veb-saytlarni shakllantiradi, yuritadi va yangilab boradi, foydalanuvchilarga ulardan foydalanishga doir tushuntirishlar beradi;

olangan statistik ma'lumotlarning maxfiyligini va davlat sirlariga ega bo'lgan statistik ma'lumotlarning himoya qilinishini ta'minlaydi;

qonun hujjatlariga muvofiq statistika organlari faoliyati jarayonida yuzaga kelgan arxiv hujjatlarini komplektlash, saqlash, hisobga olish va ulardan foydalanish ishlarini amalga oshiradi;

o'z vakolatlari doirasida Davlat statistika qo'mitasi faoliyati jarayonida olingen xizmat, bank, tijorat sirlarini va boshqa maxfiy ma'lumotlarni o'z ichiga olgan axborotlarni saqlash va himoyalashning tegishli tartibini ta'minlaydi;

g) davlat organlari, yuridik shaxslar, xalqaro tashkilotlar va aholini belgilangan tartibda statistika axboroti bilan ta'minlash sohasida:

milliy va xorijiy foydalanuvchilarning keng ommasi uchun statistik axborotlarning maksimal darajada ochiq-oydinligi va oshkorligini, shu jumladan, respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish ko'rsatkichlari va materiallarini xalqaro statistik to'plamlarda chop etgan holda xalqaro statistik tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirishni ta'minlaydi;

ommaviy axborot vositalarida joylashtirish uchun ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tendensiyalarini tavsiflovchi kompleks tahliliy ma'ruzalar, press-relizlar va maqolalar tayyorlaydi, tarqatilayotgan statistik ma'lumotlarga tahliliy va ma'lumotnomaga materiallar majburiy tartibda ilova qilinishini ta'minlaydi;

milliy iqtisodiyot tarmoqlari va sohalari hamda hududlarning rivojlanishini, islohotlarni chuqurlashtirish va iqtisodiyotni erkinlashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va texnologik qayta jihozlash, xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash, respublika hududlarini kompleks rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan dasturlarning amalga oshirilishini, aholi turmush darajasidagi sifat o'zgarishlarini yanada to'liq aks ettiradigan statistik axborotlarni tezkor va sifatli tayyorlashni amalga oshiradi;

respublika iqtisodiyotining rivojlanishi holati, iqtisodiyotni rivojlantirish va isloh qilish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan qarolarning amalga oshirilishi holati to'g'risidagi yillik va choraklik statistik va tahliliy materiallarni tayyorlaydi va belgilangan tartibda taqdim etadi;

ochiq statistik ma'lumotlarni davlat statistika organlari, boshqa davlat organlari, xalqaro tashkilotlar nashrlarida joylashtirish yo'li bilan tarqatadi va barcha foydalanuvchilarga statistik ma'lumotlardan foydalanish uchun teng imkoniyatlarni ta'minlaydi;

xorijiy statistika organlari bilan ochiq statistik axborotlarni almashadi, respublikaning rivojlanishi to'g'risidagi materiallarni xalqaro statistik to'plamlarda chop etish uchun axborotlarni tayyorlash va taqdim etishni ta'minlaydi;

Davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlari asosida ommaviy axborot vositalarida tahliliy lavhalar, diagrammalar va grafiklarni keng namoyish qilish, statistik nashrlarga ko'rsatkichlarni vizuallashtirishning ilg'or usullarini joriy etish yo'li bilan alohida statistik ko'rsatkichlar to'g'risida aholini xabardor qilish choralarini ko'radi;

statistika kuzatuvlari va rasmiy statistika axborotlari masalalari bo'yicha axborot-tushuntirish ishlarini olib boradi;

shartnama asosida, qonun hujjalari belgilangan tartibda statistik, tahliliy, axborot, noshirlik xizmatlarini va Davlat statistika ishlari dasturidagidan tashqari boshqa xizmatlarni ko'rsatadi;

d) Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri va statistika ishlarini tashkil qilish uchun zarur iqtisodiy-statistik klassifikatsiyalarni yuritish sohasida:

yagona tasniflar tizimi asosida yuridik shaxslarni davlat tomonidan hisobga olish va identifikatsiyalashni, Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrining samarali faoliyat ko'rsatishini hamda rivojlantirilishini ta'minlaydi;

statistika ishlarini tashkil etish uchun zarur bo'lgan iqtisodiy-statistik klassifikatorlarni ishlab chiqadi va yuritadi, xalqaro standart klassifikatorlar asosida ularning muntazam ravishda qayta ko'rib chiqilishini amalga oshiradi;

o'zaro mos axborot tizimlarini va resurslarini yaratish uchun asos sifatida statistik klassifikatorlardan foydalanishni ta'minlaydi;

internet-resurslarga joylashtirish yo'li bilan statistik klassifikatorlar va ularga kiritilayotgan o'zgartirishlar to'g'risidagi axborotlarni foydalanuvchilarga taqdim etadi;

e) davlat statistikasi tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish, foydalanuvchilarning respublikaning rivojlanishini to'liq tavsiflovchi hamda iqtisodiyot tarmoqlari va

sohalarining rivojlanishidagi, shuningdek, aholi turmush darajasidagi sifat o'zgarishlarini yanada to'liq ochib beruvchi ko'rsatkichlarning keng ro'yxatidan erkin foydalanishlarini ta'minlash sohasida:

statistika axborotlarining tezkorlik bilan uzatilishini va qayta ishlanishini ta'minlovchi yangi axborot-kommunikatsiya resurslari va texnologiyalarini davlat statistika organlari faoliyatiga joriy etadi, ularning respublikaning boshqa axborot tizimlari bilan mos kelishini ta'minlaydi;

statistik ma'lumotlar bilan ishslash jarayonini avtomatlashtirish darajasini chuqurlashtirishni, davlat statistika organlarida foydalilaniladigan axborot tizimlarini doimiy takomillashtirishni, statistik ma'lumotlarning yagona bankini shakllantirish, ko'rsatilayotgan interaktiv xizmatlarning tarkibini kengaytirish va sifatini oshirishni ta'minlaydi;

axborotlardan foydalanuvchilarga real vaqt rejimida ko'rsatkichlarning kengaytirilgan ro'yxatidan erkin foydalanish imkonini beruvchi statistik ma'lumotlar bazasini ishlab chiqadi va yuritadi;

axborot xavfsizligini ta'minlash, axborot almashishning himoyalangan elektron shakliga bosqichma-bosqich o'tish, xavflarga qarshi tizimning samarali ishslashini ta'minlash uchun normativ-huquqiy va tashkiliy-texnik bazani takomillashtirish chora-tadbirlarini amalga oshiradi;

milliy axborot makoni yaxlitligini saqlash, davlat statistika organlari axborot resurslari va tizimlarining axborot xavfsizligini ta'minlash, davlat statistikasi axborot-hisoblash tizimini ruxsatsiz foydalanishdan himoya qilish bo'yicha davlat siyosatini amalga oshirish choralarini ko'radi;

axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida davlat siyosatini amalga oshirish va "Elektron hukumat" tizimini joriy etish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil qiladi;

j) Davlat statistika qo'mitasi markaziy apparati va uning tarkibiy bo'linmalarining ish usullari va shakllarini yanada takomillashtirish, fuqarolar murojaatlariga o'z vaqtida munosabat bildirish, yuklangan vazifalar o'z vaqtida va sifatli bajarilishi uchun xodimlarning mas'uliyatini oshirish sohasida:

jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari asosida hududiy statistika organlari ishini takomillashtirish bo'yicha amaliy choralar va takliflar ishlab chiqadi;

mamlakatning ilmiy va ta'lim muassasalari hamda xorijiy statistika tashkilotlari bilan hamkorlikda statistika sohasida mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish ishlarni tizimli asosda ta'minlaydi;

statistika axborotlarini yig'ish va tarqatishda qulay sharoitlar yaratish, ishbilarmonlik muhitining holatini yanada yaxshilash va davlat statistikasi sohasida normativ-huquqiy bazani takomillashtirish choralarini ishlab chiqish jarayoniga tadbirkorlik subyektlari va fuqarolik jamiyatni vakillarini jalb qiladi;

fuqarolarni qabul qilishni tashkil qiladi, jismoniy va yuridik shaxslarning yozma va og'zaki murojaatlari o'z vaqtida va to'liq ko'rib chiqilishini, ular bo'yicha qarorlar qabul qilinishini va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va muddatlarda murojaat egalariga javoblar yuborilishini ta'minlaydi;

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari va yuridik shaxslari tomonidan davlat statistikasi sohasidagi qonun hujjatlari buzilishining oldini olishga qaratilgan ogohlantiruvchi va profilaktika xususiyatiga ega choralarini, shuningdek, aniqlangan qonunbuzarliklar oqibatlarini bartaraf etish choralarini amalga oshiradi;

z) ro'yxatga olish jarayonlarini tashkil etish va amalga oshirish sohasida:

ro'yxatga olish hujjatlari shakllarini, ro'yxatga oluvchi xodimlar guvohnomasi shaklini ishlab chiqadi va tasdiqlaydi;

ro'yxatga olish dasturlarini va ro'yxatga olish varaqalari shakllarini ishlab chiqadi va hududlarga yetkazilishini ta'minlaydi;

ro'yxatga olishni o'tkazish to'g'risida aholini xabardor qilishga doir ishlarni muvofiqlashtiradi;

ro'yxatga olishga jalb etiladigan xodimlarni tanlab olish va o'qitish tartibini belgilaydi va o'qitishni tashkil etadi;

ro'yxatga olish natijalari milliy va xorijiy foydalanuvchilarning keng ommasi uchun e'lon qilinishini ta'minlaydi;

ro'yxatga olish varaqlari va boshqa ro'yxatga olish hujjatlarining saqlanishi (shu jumladan, vaqtincha saqlanishi), yo'q qilinishi tartibini belgilaydiva ularning bajarilishini ta'minlaydi.

Davlat statistika qo'mitasi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham bajarishi mumkin.

### **3-bob. Davlat statistika qo'mitasining huquqlari va javobgarligi**

15. Davlat statistika qo'mitasi o'ziga yuklangan asosiy vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

Davlat statistika qo'mitasiga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish bilan bog'liq normativ-huquqiy va boshqa hujjatlarning loyihamalarini belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritish;

davlat boshqaruvi organlaridan, xo'jalik birlashmalaridan, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlaridan, banklardan, boshqa yuridik shaxslardan (zarur hollarda — ularning vakolatxonalari va filiallaridan) davlat statistika hisobotini belgilangan tartibda olish hamda undan statistika maqsadlarida foydalanish;

davlat boshqaruvi organlaridan, xo'jalik birlashmalaridan, davlat tashkilotlaridan davlat statistika ishlarini olib borish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni (ularni ishlab chiqishning istalgan bosqichida), shuningdek, ularga ilova qilinadigan tushuntirishlarni so'rash va olish;

yuridik shaxslarni va yakka tartibdagi tadbirkorlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiruvchi organlardan, shuningdek, yuridik shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlarning registrlari va axborot bazalarini shakllantiruvchi va yurituvchi davlat organlari va ularning idoraviy mansub tashkilotlaridan Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini yuritish va faollashtirish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni olish;

rasmiy statistika bo'yicha yagona davlat siyosatini olib borish sohasida davlat boshqaruvi organlari, xo'jalik birlashmalari, mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini muvofiqlashtirish;

boshqa rasmiy statistika ishlab chiqaruvchilarning statistika metodologiyalarini xalqaro standartlarga muvofiqligi yuzasidan auditdan o'tkazish va audit natijalariga ko'ra vazirliklar va idoralarga bajarilishi majburiy bo'lgan taqdimnomalar kiritish;

davlat statistika kuzatuvlari shakllarini, ularni taqdim etish tartibini tasdiqlash, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, davlat statistika kuzatuvlarini olib borish usullarini belgilash hamda davlat boshqaruvi organlari va xo'jalik birlashmalarining idoraviy statistik hisobot va kuzatuvlari shakllarini kelishish;

yuridik va jismoniy shaxslarning, shu jumladan, yakka tartibdagi tadbirkorlar faoliyatining davlat statistika kuzatuvlarini olib borish va olingan ma'lumotlardan statistika maqsadlarida foydalanish;

statistik ma'lumotlarni taqdim etuvchi davlat organlari, yuridik shaxslar, ularning vakolatxonalari va filialari, yakka tartibdagi tadbirkorlar bajarishi majburiy bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlarni belgilangan tartibda qabul qilish;

kuzatuvlarni o'tkazish, rasmiy statistik materiallarni shakllantirish va tahlillarni amalga oshirish maqsadida vazirliklar va idoralarning axborot tizimlari bilan o'zaro elektron bog'lanish;

davlat statistika kuzatuvlarining metodologiyasi va tashkil etilishi, shuningdek, rasmiy statistika axborotlari bilan bog'liq masalalar bo'yicha axborot-tushuntirish ishlarini olib borish;

rasmiy statistik ma'lumotlardan noto'g'ri foydalanish va talqin qilish holatlarini ko'rib chiqish hamda ular bo'yicha tushuntirishlar berish;

barcha yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan rasmiy statistika sohasidagi qonun hujjatlarining bajarilishi ustidan nazorat qilish;

olinayotgan statistik ma'lumotlarning to'liqligi, ishonchliligi va xolisonaligini ekspertizadan o'tkazish;

rasmiy statistik ma'lumotlarda buzilishlar aniqlangan taqdirda, ularni bartaraf etish to'g'risida ko'rsatmalar berish va yig'ma davlat statistik ma'lumotlariga tegishli tuzatishlar kiritish;

davlat statistika hisobotlarini taqdim etish tartibini buzayotgan mansabdor shaxslarga nisbatan qonun hujjatlariga muvofiq ma'muriy jazo choralarini ko'rish;

davlat statistika hisobotlarini taqdim etish tartibini buzganlik uchun mansabdar shaxslarga qo'llaniladigan ma'muriy jarimalardan tushumlar hisobiga Davlat statistika qo'mitasining maxsus jamg'armasini shakllantirish va undan belgilangan tartibda foydalanish;

Davlat statistika qo'mitasi tizimiga kiradigan tashkilotlarni tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish to'g'risida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda takliflarni tayyorlash va kiritish, shuningdek, ushbu tashkilotlar to'g'risidagi nizomlar (ustavlar)ni tasdiqlash, davlat statistika kuzatuvlarini olib borish uchun shartnoma asosida yuridik va jismoniy shaxslarni jalb etish;

rasmiy statistika sohasidagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, ularni ishlab chiqish uchun O'zbekiston Respublikasi ilmiy muassasalari, respublikaning boshqa tashkilotlari va xorijiy tashkilotlarni, shuningdek, mamlakatimizning yetakchi olimlari va xorijiy mutaxassislarni belgilangan tartibda jalb etish;

o'z vakolati doirasida kengash va ekspert organlari (kengashlar, komissiyalar, guruhlar) tuzish;

xalqaro statistika va iqtisodiyot tashkilotlari bilan hamkorlikni amalga oshirish, statistika masalalari bo'yicha, shu jumladan, xalqaro seminarlar va kengashlarni o'tkazish va ularning ishida qatnashish;

shartnoma asosida statistik, tahliliy, axborot, noshirlik xizmatlari va Davlat statistika ishlari dasturidan tashqari boshqa xizmatlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ko'rsatish;

qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Davlat statistika qo'mitasi xodimlarining mehnatiga haq to'lash, rag'batlantirish, mukofotlash va rag'batlantirishning boshqa turlarini amalga oshirish;

alohida vazifalarni bajarish uchun funksional bo'linmalar tashkil qilish;

sohasda huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi ichki va boshqa hujjatlarni tayyorlash hamda ulardan foydalanish;

Ochiq ma'lumotlar portalini rivojlantirish, shuningdek, e'lon qilinadigan ma'lumotlarga taalluqli masalalar bo'yicha davlat organlari va tashkilotlaridan bepul asosda maslahat yordami olish;

zarur hollarda, shartnoma asosida ekspertlar, konsultantlar va tashkilotlarni (shu jumladan, xorijiy) hamda statistik kuzatuvlarni o'tkazish uchun yuridik va jismoniy shaxslarni jalb etish;

rasmiy statistika sohasini rivojlantirish uchun xalqaro moliya institutlari va donor mamlakatlarning grantlari va texnik ko'magi mablag'larini jalb etish.

Davlat statistika qo'mitasi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

16. Davlat statistika qo'mitasi o'z vakolatlari doirasida davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, boshqa tashkilotlar, mansabdar shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilish huquqiga ega.

Davlat statistika qo'mitasi, zarurat bo'lganda, boshqa vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar bilan birga qo'shma qarorlar va boshqa hujjatlar qabul qilishi mumkin.

17. Davlat statistika qo'mitasi va uning mansabdar shaxslari ularga yuklangan vazifalar va funksiyalar samarali bajarilishi uchun javob beradi.

Davlat statistika qo'mitasining mansabdar shaxslari harakatlari ustidan shikoyat qilish qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

18. Davlat statistika qo'mitasi tizimi rahbarlari va xodimlari rasmiy statistika sohasidagi qonun hujjatlarini talablarini buzganlik, tarqatilishi cheklangan statistik ma'lumotlar, statistik axborotlar va (yoki) ma'lumotlar bazasini yo'qotganlik, sotganlik, bergenlik va boshqa noqonuniy oshkor etganlik uchun, shuningdek, statistik ma'lumotlarni yashirganlik va buzib ko'rsatganlik uchun yoxud ko'rsatib o'tilgan huquqqa zid qilmishlarga ko'maklashganlik uchun qonunga muvofiq javob beradi.

#### **4-bob. Davlat statistika qo'mitasining faoliyatini tashkil etish**

19. Davlat statistika qo'mitasiga O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi ma'qullaganidan keyin kiritilgan O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimididan ozod etiladigan rais boshchilik qiladi.

Raisning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimidan ozod etiladigan birinchi o'rinnbosari va uch nafar o'rinnbosari bo'ladi.

Davlat statistika qo'mitasi raisi maqomiga ko'ra vazirga, raisning birinchi o'rinnbosari — vazirning birinchi o'rinnbosariga, rais o'rinnbosarlari — vazir o'rinnbosarlariga tenglashtiriladi.

## 20. Davlat statistika qo'mitasi raisi:

Davlat statistika qo'mitasi tizimi faoliyatiga umumiy rahbarlik qiladi va Davlat statistika qo'mitasiga yuklangan vazifalar va funksiyalarning bajarilishi uchun shaxsan javob beradi;

davlat organlarida va boshqa tashkilotlarda Davlat statistika qo'mitasini ifodalaydi yoxud Davlat statistika qo'mitasi nomidan ishonchnoma va (yoki) vakolatlar beradi;

Davlat statistika qo'mitasi xodimlarining belgilangan soni doirasida markaziy apparat shtat jadvalini tasdiqlaydi;

amalga oshirilgan davlat statistika ishlari hajmlariga muvofiq moliyaviy va moddiy-teknika resurslarini taqsimlaydi;

Davlat statistika qo'mitasi markaziy apparatining boshqarmalari, hududiy statistika organlari va Institut to'g'risidagi nizomlarni belgilangan tartibda tasdiqlaydi;

Davlat statistika qo'mitasi markaziy apparati xodimlarini, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar statistika boshqarmalari rahbarlarini tegishli ravishda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari taqdimnomasiga ko'ra belgilangan tartibda lavozimga tayinlaydi va lavozimidan ozod qiladi;

Davlat statistika qo'mitasining vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha qarorlar qabul qiladi, rais o'rinnbosarlari, Davlat statistika qo'mitasi, hududiy statistika organlari va Institutning boshqa mansabdor shaxslarining vakolatlari, majburiyatlarini va javobgarligi darajasini belgilaydi;

zarurat bo'lganda Davlat statistika qo'mitasi, hududiy statistika organlari va Institut tuzilmasiga xodimlarning belgilangan umumiy soni hamda statistika ishlarini amalga oshirish uchun ajratiladigan mablag'lar doirasida o'zgartirishlar kiritadi;

o'z vakolatlari doirasida Davlat statistika qo'mitasi, hududiy statistika organlari va Institutning barcha xodimlari tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan qarorlar qabul qiladi, buyruqlar chiqaradi va ko'rsatmalar beradi;

Davlat statistika qo'mitasi markaziy apparati xodimlari, hududiy statistika organlari va Institut rahbarlarini rag'batlantirish va ularga nisbatan intizomiyoj jazo choralarini qo'llash masalalarini hal etadi;

davlat statistika organlari xodimlariga nisbatan malaka talablarini belgilaydi va ularning mehnatini rag'batlantirish tizimini shakllantiradi, yuqori malaka uchun ustamalar belgilaydi;

Davlat statistika qo'mitasi tizimida kadrlar zaxirasini shakllantirish, shuningdek, tizim xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish ishlarini tizimli asosda tashkil qiladi;

rasmiy statistika sohasidagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlarini, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasining ilmiy muassasalarini, respublikaning boshqa tashkilotlari va xorijiy tashkilotlarni, shuningdek mamlakatimizning yetakchi olimlari va xorijiy mutaxassislarini jalgan holda belgilaydi;

statistika sohasida hamkorlik to'g'risida bitimlar tuzadi va belgilangan tartibda o'ziga yuklangan vazifalar doirasida xorijiy davlatlarning statistika organlari va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi;

Davlat statistika qo'mitasining hay'ati yig'ilishlarida raislik qiladi.

Davlat statistika qo'mitasi raisi qonun hujjalariiga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshiradi.

## 21. Davlat statistika qo'mitasi raisining o'rinnbosarlari:

mutasaddilik qilinadigan bo'linmalarga bevosita rahbarlik qiladilar va Davlat statistika qo'mitasiga yuklangan vazifalar va funksiyalarning bajarilishi uchun shaxsan javob beradilar;

Davlat statistika qo'mitasi raisi tomonidan o'zlariga yuklangan boshqa funksiyalarni amalga oshiradilar.

## 22. Lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod qilish:

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar statistika boshqarmalari boshliqlari O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi raisi tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod qilinadi;

tumanlar (shaharlar) statistika bo'llimlari boshliqlari — tegishli tartibda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar statistika boshqarmalari boshliqlarining taqdimnomasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi raisi tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod qilinadi.

23. Davlat statistika qo'mitasida Davlat statistika qo'mitasi raisi (hay'at raisi), uning o'rindbosarlari (lavozimiga ko'ra), shuningdek, Davlat statistika qo'mitasi faoliyatining asosiy yo'nalishlarini muvofiqlashtiruvchi markaziy apparat tarkibiy bo'linmalari rahbarlaridan iborat tarkibda hay'at tashkil etiladi.

Hay'atning a'zolari soni va shaxsiy tarkibi Davlat statistika qo'mitasi raisining taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

## 24. Hay'at quyidagilarni amalga oshiradi:

statistika faoliyati samaradorligini yanada oshirish, respublika va hududiy darajada davlat statistika organlarining funksiyalari va vazifalarini takomillashtirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqqan holda davlat statistika tizimi faoliyatining qonun hujjatlarida belgilangan asosiy yo'nalishlarini tanqidiy ko'rib chiqish;

davlat statistikasi sohasidagi siyosatni amalga oshirishda Davlat statistika qo'mitasi faoliyatida boshqa davlat boshqaruvi organlari, xo'jalik birlashmalari, mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan hamkorlik qilish va muvofiqlashtirish bo'yicha takliflarni ko'rib chiqish;

davlat statistika ishlari bajarilishining borishi natijadorligini har chorakda tanqidiy ko'rib chiqish;

xorijiy mamlakatlar statistika organlari bilan statistik axborotlarni almashishni tashkil etish, shuningdek, statistik axborotlarni xalqaro statistik, moliyaviy va iqtisodiy tashkilotlarga taqdim etish bo'yicha takliflarni ko'rib chiqish;

jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasi va Xalq qabulxonalaridan tushgan murojaatlarni o'z vaqtida va sifatli ko'rib chiqish asosida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining topshiriqlari bajarilishi yuzasidan samarali nazoratni ta'minlovchi ijro intizomi darajasini oshirish, davlat statistikasi sohasidagi eng muhim muammolarni hal etish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqish;

joylarda davlat statistikasi organlari faoliyatining dolzarb masalalarini muhokama qilgan, shuningdek, yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etish bo'yicha tegishli qarorlar ishlab chiqqan va qabul qilgan holda kengaytirilgan sayyor hay'at yig'ilishlari o'tkazilishini tashkil etish;

hududiy statistika organlari va Institut rahbarlarining hisobotlarini eshitishni tizimli asosda tashkil qilish, ularga yuklangan vazifalar o'z vaqtida va sifatli amalga oshirilishi uchun ularning shaxsiy javobgarligini oshirishni ta'minlash.

Hay'at Davlat statistika qo'mitasi vakolatiga taalluqli boshqa masalalarni ham ko'rib chiqish huquqiga ega.

25. Hay'at majlisiga Davlat statistika qo'mitasi vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha boshqa vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlari, boshqa tashkilotlar rahbarlari taklif etilishi mumkin.

Hay'at uning majlisida tarkibining yarmidan ko'pi qatnashgan taqdirda vakolatli bo'ladi. Ko'rib chiqilayotgan masalalar bo'yicha qarorlar oddiy ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi.

26. Hay'at qarorlari Davlat statistika qo'mitasi qarorlari va raisning buyruqlari bilan amalga oshiriladi. Rais va hay'at a'zolari o'rtasida kelishmovchiliklar paydo bo'lgan taqdirda rais bu to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining tegishli o'rindbosariga axborot bergan holda mustaqil ravishda qaror qabul qiladi. Hay'at a'zolari ham o'z fikr-mulohazalarini O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining tegishli o'rindbosariga xabar qilishlari mumkin.

Hay'at faoliyati tartibi uning hay'at tasdiqlaydigan reglamentida belgilanadi.

Hay'at yig'ilishlari, qoida tariqasida, har chorakda kamida bir marta o'tkaziladi.

27. Davlat statistika qo'mitasi huzurida rasmiy statistikani rivojlantirish, faoliyat yuritish va muvofiqlashtirish muammolari bo'yicha davlat boshqaruvi organlari, ilmiy jamoatchilik, jamoat tashkilotlari vakillaridan va statistika bo'yicha milliy ekspertlardan tarkib topgan kollegial maslahat organi hisoblanuvchi Statistika kengashi faoliyat yuritadi.

Statistika kengashi faoliyatining tashkiliy-texnik ta'minoti Davlat statistika qo'mitasi tomonidan amalga oshiriladi.

Statistika kengashining shaxsiy tarkibi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi.

28. Davlat statistika qo'mitasi huzurida yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan, hududiy davlat statistika organlari, birinchi navbatda tuman va shahar statistika bo'limlari rahbarlarining kasbiy darajasi va malakasini ikki yilda kamida bir marta oshirishni ta'minlaydigan hamda statistika sohasida ilmiy tadqiqotlarni amalga oshiruvchi Kadrlarni qayta tayyorlash va statistika tadqiqotlari markazi faoliyat yuritadi.

Kadrlarni qayta tayyorlash va statistika tadqiqotlari markazi to'g'risidagi nizom Davlat statistika qo'mitasi tomonidan tasdiqlanadi.

29. Faoliyat samaradorligini baholash quyidagicha amalga oshiriladi:

Davlat statistika qo'mitasi raisi, raisning birinchi o'rinnbosari, rais o'rinnbosarlari faoliyati samaradorligi — O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan faoliyat samaradorligini baholashning integratsiyalashgan ko'rsatkichlari asosida;

Davlat statistika qo'mitasi markaziy apparati boshqarmalari va bo'limlarining rahbarlari hamda xodimlari, hududiy statistika organlari va idoraviy bo'ysunuvdag'i tashkilotlar rahbar va xodimlarining faoliyati samaradorligi — Davlat statistika qo'mitasi raisi tomonidan tasdiqlanadigan faoliyat samaradorligini baholash ko'rsatkichlari asosida.

30. Davlat statistika qo'mitasi faoliyatining samaradorligi va natijadorligini baholash yakunlari bo'yicha:

Davlat statistika qo'mitasi markaziy apparati boshqarmalari va bo'limlarining rahbarlari hamda xodimlari, hududiy statistika organlari va idoraviy bo'ysunuvdag'i tashkilotlar rahbar va xodimlarini rag'batlantirish (mukofotlash) yoki ularga nisbatan intizomiy jazo choralari;

aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish va uning faoliyatini yanada takomillashtirish choralari ko'riladi.

## **5-bob. Davlat statistika qo'mitasi faoliyatini moliyalashtirish va moddiy-texnika ta'minoti**

31. Davlat statistika qo'mitasining mol-mulkini asosiy vositalar va aylanma mablag'lari, shuningdek, qiymati uning mustaqil balansida aks ettiriladigan boshqa boyliklar tashkil etadi.

32. Davlat statistika qo'mitasini moliyalashtirish va uning moddiy-texnika ta'minoti Davlat statistika ishlari dasturiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Davlat budgeti mablag'lari hisobiga amalga oshiriladi.

Davlat statistika qo'mitasi budget mablag'lari oluvchisi hisoblanib, O'zbekiston Respublikasi Davlat budgeti mablag'lari hisobiga zarur moliyalashtirish hajmini belgilashda budget qonunchiligidagi amal qiladi.

Davlat statistika ishlari dasturida belgilangan amalga oshirilgan statistika ishlari uchun haq to'lash davlat statistika ishlarini bajarishga shartnoma va Davlat statistika qo'mitasi tomonidan har oyda taqdim etiladigan bajarilgan ishlar dalolatnomalari asosida O'zbekiston Respublikasining respublika budgeti mablag'lari hisobiga ta'minlanadi.

Davlat statistika ishlari dasturiga kiritilmagan va ularni ishlab chiqishga qo'shimcha xarajatlar talab qilinadigan qo'shimcha statistika ishlariga haq to'lash buyurtmachilar mablag'lari hisobiga moliyalashtiriladi.

Davlat statistika qo'mitasi tomonidan olingan foyda, amortizatsiya ajratmalari, shuningdek, boshqa tushumlar uning ixtiyorida qoladi hamda ulardan davlat statistikasining moddiy-texnika

bazasini mustahkamlash va axborot-kommunikatsiya tizimini rivojlantirish, xodimlarning kasb mahoratini, o'z lavozim vazifalarini sifatli bajarganligini, ijodiy faolligini va tashabbuskorligini rag'batlantirish uchun belgilangan tartibda foydalaniladi.

33. Davlat statistika qo'mitasi Davlat statistika ishlari dasturini bajarish doirasida ajratilgan mablag'larning va o'z ishlarining boshqa natijalarining tezkor va buxgalteriya hisobini "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni va Buxgalteriya hisobining milliy standartlariga muvofiq amalga oshiradi, statistika hisobotini yuritadi.

### **6-bob. Yakunlovchi qoida**

34. Davlat statistika qo'mitasini qayta tashkil etish va tugatish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi".

3. Vazirlar Mahkamasining "Istiqlolli investitsiya loyihalarini ishlab chiqish tartibini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2020-yil 16-iyuldagagi 445-son qarorining **2-bandi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi "O'zInjiniring" Respublika loyiha instituti va "O'zLITIneftegaz" AJning "UorliParsons O'zbekiston injiniring" MChJ QK ustav fondidagi ulushlarini (jami 50 foiz) O'zbekiston Respublikasi Investitsiya va tashqi savdo vazirligi huzuridagi Investitsiya loyihalarini ishlab chiqish markaziga beg'arez berish to'g'risidagi taklifiga rozilik berilsin".

Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-noyabrdagi 690-son qaroriga  
3-ILOVA

### **O'zbekiston Respublikasi Hukumatining o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblanayotgan qarorlari**

#### **RO'YXATI**

1. Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi huzuridagi Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019-yil 17-avgustdagagi 686-son qaroriga 3-ilovaning **2-bandi**.

2. Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida (O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida" 2019-yil 10-dekabrdagi O'RQ-591-son Qonuni)" 2020-yil 16-apreldagi 234-son qaroriga ilovaning **7-bandi** (O'zbekiston Respublikasi QT, 2020-y., 4-son, 87-modda).

*(Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 07.11.2020-y., 09/20/690/1473-son)*